

CHO'LPON SIYMOSI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA: MA'NAVIY- MA'RIFIY YONDASHUV

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18900405>

Ahmadov Bekzodjon Obidjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
Tashkiliy-shtab faoliyati ta'lim yo'nalishi 1-bosqich kursanti*

Annotatsiya

Mazkur maqola ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda jadid adabiyotining yorqin namoyandasi – Cho'lpon merosini o'rganish va targ'ib etishning ahamiyatini tahlil etishga bag'ishlangan. Unda shoir ijodining zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy muhitga ta'siri, uning xotirasiga qo'yilayotgan hurmat va ushbu sohada amalga oshirilayotgan tashabbuslar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar

milliy tiklanish, ma'naviy islohotlar, jadid adabiyoti, Cho'lpon merosi, ichki ishlar tizimi, adabiy-ma'rifiy targ'ibot, muzey, infokiosk.

Abstract

This article is dedicated to analyzing the significance of studying and promoting the legacy of Cho'lpon, a prominent representative of Jadid literature, in enhancing the effectiveness of spiritual and educational work within the system of internal affairs organs. The article discusses the influence of the poet's works on the contemporary spiritual and educational environment, the respect paid to his memory, and the initiatives being implemented in this field.

Keywords

national revival, spiritual reforms, Jadid literature, Cho'lpon's legacy, internal affairs system, literary-educational promotion, museum, infokiosk.

Аннотация

Настоящая статья посвящена анализу значения изучения и пропаганды наследия Чулпона, яркого представителя джадидской литературы, для повышения эффективности духовно-просветительской работы в системе органов внутренних дел. В статье рассматривается влияние творчества поэта на современную духовно-просветительскую среду, уважение к его памяти и инициативы, реализуемые в этой области.

Ключевые слова

национальное возрождение, духовные реформы, джадидская литература, наследие Чулпона, система внутренних дел, литературно-просветительская пропаганда, музей, инфокиоск.

KIRISH

Bugungi taraqqiyot jarayonida ma'naviyat jamiyat hayotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. U inson ruhiyati, axloqi va aqliy salohiyatining eng chuqur qatlamlarini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar doirasida aynan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish alohida e'tiborga ega bo'lib, har bir sohada bu boradagi ishlar izchil yo'lga qo'yilmoqda.

Xususan, ichki ishlar tizimi xodimlari o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarini yangi bosqichga olib chiqish, ularni vatanparvar, intizomli, kasbiga sadoqatli shaxslar sifatida shakllantirish bugunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvarda o'tkazilgan yig'ilishda quyidagicha fikr bildirgan edi: *"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"*[1].

Ichki ishlar organlari faoliyati bevosita jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli, bu tizimda xizmat qiluvchi har bir xodimdan nafaqat yuksak kasbiy saviya, balki chuqur ma'naviy tafakkur ham talab etiladi. Ayni paytda ayrim holatlarda xizmat intizomi buzilishi kabi salbiy holatlar ham uchrab turadi. Bunday muammolarning ildizini yo'qotishda eng samarali yo'llardan biri – bu xodimlarda milliy o'zlik, tarixiy xotira va adabiy-ma'naviy merosga hurmat tuyg'usini kuchaytirishdan iborat. Ma'naviy yuksalishda albatta kitob, badiiy adabiyotning o'rni cheksiz. Ichki ishlar xodimlari o'z xizmatlari bilan bir qatorda badiiy adabiyotimiz va unda xizmat qilgan ajdodlar hayoti bilan tanishishi ularda ruhiy va aqliy faoliyatni yanada charxlanishiga yordam beradi. Ayni shunday mavzulardan biri jadidlar hayoti va faoliyatidir[2].

Bu jarayonda badiiy adabiyot, xususan, jadid adabiy maktabi vakillarining ijodini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlarida millat ma'rifatini yuksaltirish yo'lida jasorat bilan kurashgan ziyolilar orasida Cho'lpon (1897–1938) o'zbek adabiyotining eng yorqin

siymolaridan biri sifatida ajralib turadi. Uning ijodida xalq taqdiri, erkinlikka intilish, ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvor mavqega ega edi. Mustabid tuzumga qarshi ochiq kurashga chiqqan shoir o'z asarlarida adolat, tenglik va milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surdi.

Prezidentimiz tomonidan ham Cho'lpon merosi yuksak e'tirof etilgan bo'lib, "...ozodlik, erkinlik, millat dardini bu qadar yurakdan kuylagan boshqa shoir topilmaydi", deya uning ijodiy merosiga yuksak baho berilgan.

Cho'lpon – o'zbek she'riyatining eng salmoqli vakili bo'lib, nafaqat shoir, balki dramaturg, tarjimon, publitsist, adabiyotshunos sifatida ham yurt madaniyatiga katta hissa qo'shgan. "Cho'lponchilik" tushunchasi tarixan sovet mafkurasi tomonidan salbiy ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, aslida bu atama milliy uyg'onish, adolat va erkinlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq edi [3].

Mustaqillik yillarida Cho'lpon siymosiga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi. Shoirning hayoti va ijodi keng o'rganilib, uning asarlari qayta nashr qilindi, xotirasiga bag'ishlangan yodgorliklar, muzeylar tashkil etildi. Ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tashkil etilgan *Cho'lpon muzeyi* ushbu jarayonning mantiqiy davomi bo'ldi.

Muzeyning umumiy konsepsiyasi shoir hayotini, adabiy faoliyatini, jadidchilik harakatidagi o'rnini yoritishga qaratilgan. Ziyoratchilar kiraverishda shoirning mashhur "Adabiyot nadur?" maqolasidan iqtiboslar bilan qarshi olinadi. Muzey ekspozitsiyasi doirasida Cho'lpon yashagan davrga oid uy-ro'zg'or buyumlari, tarixiy fotosuratlar, Turkiston matbuotida chiqqan maqolalari, qatag'on davriga oid tergov hujjatlari fotonusxalari namoyish etilgan.

Eng diqqatga sazovor jihati – bu shoir hayotining ramziy aks etgan "ijod xonasi" bo'lib, unda yozuv mashinkasi, patifon, do'ppi va yaktak, lavh va fonuslar orqali o'sha davr ruhi jonlantirilgan [4].

Muzey binosining old devorida o'rnatilgan: "*Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib xalq ichiga boraylik!*" satrlar – Cho'lponning millat oldidagi fidokorona xizmatining yorqin ifodasidir.

Bundan tashqari, zamonaviy "Infokiosk" qurilmasi orqali tashrif buyuruvchilar Cho'lpon hayoti, ijodi, asarlari bilan raqamli shaklda tanishish imkoniyatiga ega. Ushbu ma'lumotlar bazasi Andijon shahridagi Cho'lpon muzeyi va Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi bilan hamkorlikda shakllantirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon merosini o'rganish va targ'ib etish nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki jamiyat hayotining turli qatlamlarida xizmat qilayotgan, ayniqsa, Ichki ishlar tizimidagi xodimlar uchun ham ruhiy oziqa bo'lib xizmat qilmoqda. Buyuk adib boshlab bergan ma'rifat yo'li – yosh avlodni milliy

qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zero, "Adabiyot yashasa – millat yashaydi!" degan hikmatli fikr bugungi kunimizda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Ichki ishlar xodimlarining ruhan sog'lom, ma'naviy boy shaxslar sifatida shakllanishi esa jamiyatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamolov Baxromjon Ismoiljonovich. Shaxsiy tarkib o'rtasida ma'naviy ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish. science and innovation international scientific journal. 2022 № 3

2. Cho'lpon (1897- 1938) (e-tarix.uz)

3. <https://cyberleninka.ru/article/n/ichki-ishlar-organlarining-kadrlar-bilanishlash-hizmatlari-faoliyatini-bosh-arishning-bugungiolati?ysclid=lryjz67obl795713829>

4. Jamshid Xolov, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida Cho'lpon muzeyi tashkil etildi (uza.uz)

1. Дадабаева, Ф. З. (2025, April). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННОЙ МУЗЫКИ НА МОЛОДЁЖЬ. In Russian-Uzbekistan Conference (Vol. 1, No. 2, pp. 71-73).

2. Дадабаева, Ф. З. (2026). ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE, 4(2), 64-70.

3. Дадабаева, Ф. З. (2025). О ЗНАЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ЖИЗНИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ. Экономика и социум, (2-1 (129)), 869-872.

4. Дадабаева, Ф. З. (2025). О ЗНАЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ЖИЗНИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ. Экономика и социум, (2-1 (129)), 869-872.

5. Zoxidjon, J., & Dadabayeva, F. (2024). RELEVANCE OF MODULAR TRAINING IN HIGHER SCHOOL. Modern Science and Research, 3(2), 650-660.

6. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. Journal of Creativity in Art and Design, 1, 16-20.

7. Дадабаева, Ф. З., & Жуманазаров, З. Э. У. (2024). АКТУАЛЬНОСТЬ МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ.

8. ДАДАБАЕВА, Ф. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 869-872.

9. Дадабаева, Ф. З. (2024). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУППАХ ИНСТИТУТА ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 1184-1187.
10. Nozima, A., & Dilnoza, D. (2026). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI. *Worldwide Cross-Disciplinary Research*, 3(3).
11. QODIROVA, Marg'uba Bo'riyevna, and Farog'at Zarifovna DADABOYEVA. "FOLKLOR-MA'NAVIYAT KO 'ZGUSI." FOLKLOR, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMIY O 'RGANISHDA FAN VA INNOVATSIYALAR UYG 'UNLIGI: 82. 2023.
12. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
13. Nazarbaevna, Q. A., & Saliyevna, Y. Z. (2025). MADANIY INTELLEKT VA RAQS SAN'ATI: SHAXSIY VA IJODIY TAFAKKUR UYG'UNLIGINING OMILI SIFATIDA. *ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH*, 2 (11), 105-111.
14. Kadirova M.B. MUSIC AND LIFE. Conduct of modern science. 2019.
15. Kadirova M.B. Folklor is the eternal history of the nation, THE HARMONY OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE STUDY OF FOLKLORE, LANGUAGE AND CULTURE. 2021.
16. Kadirova M.B. Amir Temur davrida san'at va madaniyatining ahamiyati, o'ziga xosligi. O'ZBEKISTONDA ILMIY-AMALIY TADQIQOTLAR mavzusidagi konferensiya. 2020.
17. Jumanazarov, Z. (2025). The role of childhood cultural experiences in spiritual security issues. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 657-662.
18. Jummanazarov, Z. E. (2025). Musiqaning yoshlar aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta'siri. *Inter education & global study*, (3), 563-573.
19. Qizi, A. N. F. (2022). ALISHER NAVOIY VA MUSIQA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Conference DSMI), 252-555.
20. Eldor o'g'li, J. Z., & Sayfulla o'g'li, S. A. (2025). BOLALARDA MUSIQA CHOLG 'U IJROCHILIGI MAHORATINI RIVOJLANTIRISH. *SHOKH LIBRARY*, 1(11).
21. Eldorovich, J. Z. (2025). ANALYZING THE ADVANTAGES OF TRADITIONAL VISUAL ARTS EDUCATION: A FOCUS ON THE CRITICAL ROLE OF PRACTICAL LEARNING. *SHOKH LIBRARY*, 1(11).

22. Eldor o'g'li, J. Z., & Dilshod o'g'li, X. D. (2025). MADANIY MUHITDA RAQAMLI KONVERGENTSIYA. *SHOKH LIBRARY*, 1(11).
23. Eldor o'g'li, J. Z. (2025). MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA XALQARO MENEJMENTNING AHAMIYATI VA AMALIYOTGA TADBIQ ETISH. *Global Science Review*, 3(6), 602-609.
24. Eldor o'g'li, J. Z. (2025). KREATIV INDUSTRIYALAR: INNOVATSIYA VA TA'SIR KELAJAGI. *InnoRes*, 1(2), 106-113.
25. Eldor o'g'li, J. Z., & Sayfulla o'g'li, S. A. (2025). THE INFLUENCE OF MUSIC ON THE HUMAN MIND. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (1), 181-185.
26. Eldor o'g'li, Z. J. (2025). THE INTEGRATIVE ROLE OF CULTURAL INTELLIGENCE IN THE PROCESS OF TRAINING SPECIALISTS IN THE SOCIAL SPHERE. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (1), 165-175.
27. Nazarbaevna, Q. A., & Saliyevna, Y. Z. (2025). SPECIFIC FEATURES AND CHALLENGES OF TEACHING AMATEUR CHOREOGRAPHY TO STUDENTS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 3(10), 95-103.
28. Eldor o'g'li, J. Z., & Obidjon o'g'li, A. B. (2025). TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI VA KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *SHOKH LIBRARY*.
29. Eldor o'g'li, Z. J. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF CULTURAL AND ART TRAINING INSTITUTIONS BASED ON CULTURAL INTELLIGENCE. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(15), 21-25.
30. Yunusov R. O'zbekiston xalq cholg'ulari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
31. Kolkanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. *Turkology*, (2).
32. Qolqanotov, A. (2026). NATIONAL SONGS AS A SPIRITUAL NEED. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 4(2), 86-91.